

LINGVOKULTUROLOGIYA TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO'NALISHI SIFATIDA

Zikriyoxonposhsha Sobirjonova Muzaffar qizi

O'zDJTU inglez filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

zikriyoxonposhsha@gmail.com

+998913263959

Annotatsiya Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, konnotatsiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika, fenomen

Abstract This article discusses linguoculturalism, one of the modern directions of linguistics.

Key words: linguoculturalism, connotation, ethnolinguistics, sociolinguistics, phenomenon

Аннотация В данной статье рассматривается одно из современных направлений языкоznания – лингвокультурология.

Ключевые слова: лингвокультурология, коннотация, этнолингвистика, социолингвистика, феномен

Lingvokulturologiya tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bilamizki, til ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan bir qatorda turli xil millatlarning rang-barang madaniyatlari bilan ham uzviy bog'liqlik kasb etadi. Nikolay Sergeyevich Trubetskoyning quyidagi so'zlari ham buning yaqqol isbotidir: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiyl qismlar bo'lishi shart". Aynan shu bog'liqlik asosida XX asrning 90-yillarda lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) mustaqil soha sifatida tilshunoslik olamiga kirib keldi.

Lingvokulturologiya sohasining fanga kirib kelishida rus tilshunoslarining o'rirlari beqiyos sanaladi. Tadqiqotchilarning fikricha, "lingvokulturologiya" (lat. lingua "til"; cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish"; yunon. "ilm, fan") termini Veronika Nikolayevna Teliya (1930-2011) rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Aynan o'sha paytdagi Rossiya frezeologik maktabi vakillari orasida Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklen hamda V.A.Maslova kabi til ilmi namoyondalari ijod qilar edilar.

So'nggi yillarda til va madaniyat masalalarini lingvokulturologiya fani izchil o'rganishga kirishdi. V.V.Vorobyevning fikricha: "Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir".

Yuqorida nomi ta'kidlab o'tilgan, lingvokulturologiya sohasida uzoq yillar jiddiy tadqiqotlar olib borgan rus olimasi Valentina Avraamova Maslova bu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

- 1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.Fon Gumboldt, E.Benvnist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);
- 2) lingvokulturologiyaning alohida fan sifatida ajralishi;
- 3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi;

Lingvokulturologiyaning predmeti o'zaro chambarchas aloqada, muloqotda bo'lgan til va madaniyat sanaladi. Bu soha madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada birlashadi. Lingvokulturologiya etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan ham uzviy bog'liqdir. Hatto V.N. Teliyaning fikrlariga ko'ra, lingvokulturologiya etnolingvistikating tarkibiy qismidir. Biroq, lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida fanlardir.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligida yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarini aynan shu soha bo'yicha olib borishdi. V.N. Teliya bu soha haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omilini, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir".

Lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya'ni uning ongi, shuuri, ommaviy an'analari hamda urf-odatlari bilan bog'liq til ifodalarining qo'llanilishi tadqiq etadi.

Bu sohaning o'ziga xos bo'lgan maqsadlari haqida so'z borsa, lingvokulturologiya mustaqil fan yo'nalishi sifatida quyidagi masalalarni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- 1)til konseptlarini shakllanishida madaniyat qay tarzda ishtirok etadi;
- 2)til belgisi ma'nosining qaysi qismiga "madaniy ma'nolar" biriktiriladi;
- 3) bu ma'nolar so'zlovchi va tinglovchi tomonidan anglashiladimi hamda ular nutq strategiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadimi;
- 4)haqiqatan ham til egasining madaniy-lisoniy qobiliyati mavjudmi;
- 5)konseptofora (muayyan madaniyatning asosiy konseptlari yig'indisi) hamda bir madaniyat va ko'r madaniyat egasi yo'nalgan madaniyat diskursi qanday bo'ladi;
- 6)mazkur fanning asosiy tushunchalarini qanday sistemalashtiradi, ya'ni fanning asosiy tushunchaviy terminologik apparati qanday yaratiladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlardan bilinadiki, lingvokulturologiya zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari orasida bir muncha murakkab va hali ham to'liq tadqiq qilinmagan sohadir. Chunki aynan shu yo'nalishda ikkita katta fanning bir bo'lishini kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Трубецкой Н.С. Поведение и мышления к языку. – М., 1960
- 2.Телия В.Н. Русская фразеология: семантические, pragmaticальные и лингвокультурологические аспекты. -М.,1996.
3. Воробьёв В.В. О статусе лингвокультурологии. IX Международный конгресс МАПРЯЛ "Русский язык, литература и культура на рубеже веков" Братислава, 16–21 августа 1999.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. -М., 1987
5. Komilova Gulmira Temirovna. Til va lingvokulturologiya. 2021.
6. Shoir Usmanova. Lingvokulturologiya (Darslik) -T. 2019.